



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Bo'riyeva Go'zalina

Termiz davlat pedagogika instituti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)" yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari mashg'ulotlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish orqali o'quvchilarda ijodkorlik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, innovatsion texnologiya, gamifikatsiya, loyihaviy ta'lim, raqamli kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the possibilities of forming creativity, communicative and digital competencies in students by organizing extracurricular activities of primary school students using digital technologies based on an innovative approach.

Keywords: digital technologies, extracurricular activities, innovative technology, gamification, project-based education, digital competence.

Kirish: Bugungi kunda Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga sifatli bilim berish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, yuqori malakali, raqobatdosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat". Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoni tobora yangilanib bormoqda. Shu bois Prezidentimizning ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga oid qaror va farmonlari, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'limda raqamli pedagogika tamoyillarini keng joriy etishni nazarda tutadi. Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'lumotini oshirish va darslarni o'zlashtirish darajasini ko'tarishga ko'maklashishi uchun, boshlang'ich maktabda sinf mashg'ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o'tkazish zarur.

Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo'lishi bilan birga, o'quvchilarni bilimga va mehnatga bo'lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o'zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta'sir etadi. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarni matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil





qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang'ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog'langan bo'lib, sinf ishlarining davomi bo'ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o'quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o'quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o'tkaziladi;

3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazilish shakliga ko'ra darslardan farq qiladi va ko'pincha qiziqarlilik xarakteriga ega bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi: Matematik to'garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish. Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi: bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish; matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega: O'z mazmuni bo'yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashg'ulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Mashg'ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10-12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli- tumanligi.

Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma'lumotlari etishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlari ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar, tarixiy ma'lumotlar berish va boshqalar kiradi.





Maktab amaliyotida hozir quyidagilar uchraydi: matematik 10 minutliklar, soatliklar, matematika kechalari, matematika to'garak lari, ertaliklar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalar.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak: Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'tkaziladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimligining murakkabligidir.

Zamonaviy raqamli platformalar, interaktiv ta'lim resurslari, virtual va qo'shimcha haqiqat texnologiyalari, shuningdek, sun'iy intellekt va o'quvchilarni moslashtirilgan ta'lim usullari kabi innovatsion vositalar ta'lim jarayonlarini engillashtirishga va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki o'qituvchilar uchun ham yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Raqamli texnologiyalar sinfdan tashqari darslarni tashkil etishni yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi, bu yerda virtual sinflar, onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Zoom), AR/VR vositalari, video kontentlar, o'yinlashtirish va sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarni faol ishtirokini ta'minlash, qiziqishlarini oshirish va mustaqil ta'limga undash muhimdir. Bundan tashqari sinfdan tashqari mashg'ulotlarni Gamifikatsiya orqali tashkil etish ham samarali usullardan biridir. Gamifikatsiya — ta'lim jarayoniga o'yin mexanizmlarini kiritish orqali o'quvchilarni rag'batlantirish, faolligini oshirish strategiyasidir. Raqamli muhitda gamifikatsiya o'quvchi motivatsiyasini kuchaytirib, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda qiziqishning barqarorligini ta'minlaydi.

Gamifikatsiyaning didaktik afzalliklari: O'quvchi e'tiborini darsga jalb etadi. Harakatga undaydi, bellashuv muhiti yaratadi. Bilimni o'yin davomida sezilmay mustahkamlaydi. O'zini baholash va natijalarni ko'rish imkonini beradi. O'qituvchining sinfdan tashqari faoliyatni tashkil etishdagi roli faqat tashkiliy emas, balki ijodiy yetakchilik darajasiga ko'tariladi. Bu quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: Fan olimpiadalari, intellektual o'yinlar, viktorinalar;

Ilmiy-amaliy loyihalar (mini-tadqiqotlar);

Ijodiy kechalar, sahna ko'rinishlari, teatrlashtirilgan darslar;

Tematik ko'rgazmalar (masalan, "Yosh ixtirochilar burchagi").

Quyidagi metodlar sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi: "Aqliy hujum";

"Rol o'ynash" va "Debatlar";

"Kichik guruhlarda ishlash" va "Teskari aloqa" metodlari;





“Klayster”, “Konsept xarita”, “6 shlyapa” metodi va boshqalar.

Quizz testlar tuzish, Krossvordlar yechish;

Xulosa. Xulosa qilib aytganda raqamli texnologiyalar asosida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish: Ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi; O‘quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini rivojlantiradi; O‘qituvchi va ota-ona hamkorligini mustahkamlaydi; O‘quvchini ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

Bu ta’lim amaliyotiga keng tatbiq etish boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli texnologiyalar asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali quyidagilarga erishish mumkin: o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi; kreativ fikrlashi shakllanadi; jamoa bilan ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarorlari.

